

**FAN VA MADANIYAT RIVOJLANISHI: RENESSANS G'OYALARINING
ZAMONAVIY ILMIY JARAYONLARDA NAMOYON BO'LISHI****Sharipov Abdushukur***Renessans ta'lim universiteti,**Xalqaro munosabatlar**fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada Birinchi Uyg'onish davri allomalari, Ikkinchi Uyg'onish davri bo'lgan XIV-XV asrlardagi Sharq Renessansi va bugungi davrda shakllanayotgan Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida olib borilayotgan islohotlarni ilm-fan hamda madaniyat taraqqiyoti nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, har bir davr o'ziga xos ilmiy-maktablari-yu falsafiy va madaniy qarashlari bilan garchi ajralib tursa-da, tarixiy mutafakkirlarimizning ilmiy-metodik yondashuvlari bugungi zamonaviy ilmiy jarayonlarning shakllanishiga tarixiy asos bo'lganligini ko'rsatib beradi. Tadqiqot natijalari esa, O'zbekistonning tarixiy ilmiy merosi va zamonaviy strategiyalarini o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib, hozirgi taraqqiyot jarayonlari bo'lib o'tgan Uyg'onish davri an'alariga tayanib rivojlanayotganini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Renessans, Uyg'onish davri, ilm-fan, Temuriylar davri, mutafakkirlar, islohotlar, strategiya, texnologiyalar

Kirish: O'zbekiston tarixida fan va madaniyatning yuksalishi bir necha bor kuchli uyg'onish bosqichlarini boshdan kechirgan. Bugungi kunda olimlar tomonidan "O'zbekiston Renessanslari" deb ataladigan bu davrlar – IX-XII asrlardagi Birinchi Uyg'onish, XIV-XV asrlardagi Ikkinchi Uyg'onish hamda XXI asrda shakllanayotgan Uchinchi Renessans ya'ni Uyg'onish jarayonlari bilan belgilanadi.

Uyg'onish davri – madaniy-maorifi yuksalishga, va yoki yuksalishning keyingi bosqichiga o'tishga nisbatdan aytiladi. Shunday yekan, garchi "Renessans"ning vatani Italiya bo'lsa-da, bundan ertaroq Osiyo markazidagi Movarounnahr, Xuroson va Yeronda Italiyaga qaraganda bir necha asrlar avval madaniyat, falsafa, ilm-fan va adabiyot nihoyatda rivojlangan va jamiyat hayotida mutlaqo katta ahamiyatga ega bo'lgan edi. Ushbu davrni Sharq Uyg'onishi va musulmon sivilizasiyasi tarixini chuqur o'rgangan yirik sharqshunos olimlar Mes va Konradlar "Musulmon Renessansi" yoki "Sharq Uyg'onishi" deb ham atashgan. Ular atagan ushbu davrni esa Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi buyuk ziyolilar qurib, o'z davrining ilm-fan rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, butun insoniyat tafakkuri va ilmiy metodologiyani shakllanishiga asos yaratgan.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim islohotlari, raqamli transformasiya, innovasion ekotizimlarni shakllantirish va ilmiy maktablarni rivojlantirish jarayonlari tarixiy Renessanslarning g'oyaviy davomchisi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ushbu maqolada Renessans g'oyalarining mazmuni va tarixiy ildizlari, ularning bugungi ilm-fan taraqqiyotidagi metodik, madaniy va innovasion ko'rinishlari o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekistonning zamonaviy rivojlanish modeli tarixiy ilmiy meros bilan qanday uzviy bog'langanligi tahlil qilinadi.

Sharq Musulmon Renessansi va uning tarixiy-ilmiy negizlari

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda va yoki kengroq ma'noda musulmon Sharqida yuz bergan uyg'onish jarayonlari butun dunyo ilm-fani rivoji uchun tub burilish bo'lgan. Bu davrni g'arb tadqiqotchilari orasidan birinchi bo'lib nemis olimi Adams Mes "Musulmanische Renaissance" yoki boshqacha qilib aytganda "Musulmon Renessansi" deb atagan bo'lsa, boshqa rus sharqshunos olimi Nikolay Konrad ushbu davrni "Sharq Uyg'onishi" nomi bilan ilmiy muomalaga kiritgan.[1] Shuni ta'kidlash lozimki, Uyg'onish davrlari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan barcha tadqiqotchilar shunga amin bo'lgan – Sharqdagi uyg'onish jarayoni g'oyatda madaniy, ilmiy, falsafiy va ma'rifiy ahamiyatga ega edi.

Bu davrda Buxoro, Bag'dod, G'azna, Xorazm, Samarqand kabi markazlar ilm-fan o'choqlariga aylangan. Xususan, Bayt ul-Hikma (Bag'dod) ilmiy maktabi Sharq uyg'onishining asosiy infratuzilmasi bo'lib xizmat qilgan deb aytishimiz mumkin. Birinchi Uyg'onishning asosiy xususiyati esa qadimgi yunon ilmlarining tarjima va tahlil qilinishi, yangi g'oyalar bilan boyitib o'ziga xos Sharq ilmiy maktabini yaratilishidir. Sharqda musulmon olimlari Aristotel, Galen, Yevklid va Arximed kabi olimlarning merosini arab tillariga tarjima qilibgina qolmay, balki uni takomillashtirdi, avvalgilaridan-da chuqurroq yangi ilmiy metodlar yaratdi.[2]

Sharq Renessansida esa al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Farobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom kabi olimlar esa eng yirik vakillari bo'lib qolishdi. Masalan, Ibn Sino tibbiyot va falsafada jahon ilmiy tafakkurining poydevorini yaratdi, Xorazmiy algebra faniga asos soldi. Shularga asoslangan holda u davring ilmiy maktablarida faqat nazariy qilishmadi, balki astronomiya, trigonometriya va antropologiya kabi qator sohalarida amaliy ilmiy tajribalarini olib bordi. Ammo eng ahamiyatga molik jihati shundaki, bu davrda ilm falsafadan, falsafa adabiyotdan, adabiyot yesa musiqadan ajralmagan. Buni o'quvchi ilm, san'at va axloq bir-biridan ajralmasligi ta'kidlab o'tilgan Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridan ham bilib olsa bo'ladi.[3]

Ikkinchi Renessans va uning tamoyillari

Bilamizki, XIV- XV asrlar Markaziy Osiyo tarixida ikkinchi Uyg'onish davri sifatida tan olinadi. Ushbu davr Amir Temur va Temuriylar sulolasining hukmronligi

bilan bog'liq bo'lib, ilm-fan, madaniyat va san'atning uyg'un rivojlanishiga xizmat qilgan.[4] Davr ilmiy yutuqlari navbatdagi uyg'onish davri ilgari shakllangan Birinchi Renessansning falsafiy asoslariga tayangan.

Amir Temur va uning avlodlari ilm-fan va madaniyatni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida ko'rgan, Temuriylar siyosati mutlaqo ta'limni qo'llab-quvvatlagan. Samarqand va Buxoro markazlarida maktablar, rasadxona va kutubxonalar barpo etilgan. Barcha fan va sohalar uyg'un tarzda rivojlangan.

Qolaversa, Temurning o'zi ham tarixiy adabiyotlarni ko'p mutolaa qilgan. Bu haqida Amir Temur saroyiga 12 yoshida keltirilgan, tarixchilik bilan shug'ullangan Ibn Arabshoh o'zining Amir Temur tarixi kitobida shunday keltiradi: "Temur tarix(kitob)lari, Xudoning rahmati va salomi bo'lg'ur anbiyolar "Qissalarni podshohlar siyratlari va o'tgan salaflar haqidagi hikoyalarni doimo safarda ham xadarda ham o'qutib, qunt bilan tinglar edi".[5]

Bundan tashqari Mirzo Ulug'bekning ilmiy ishlari matematika va astronomiyaning rivojiga katta hissa qo'shgan. U yulduzlar koordinatalari va yil uzunligini o'lchash bo'yicha nazariy va amaliy metodlar ishlab chiqdi. Va aynan uning metodlari Yevropaning astronomiyasiga jiddiy ta'sir o'tkazdi, Yevropada olimlar ushbu sohaga oid kashfiyotlar qilishni boshladi. Albatta, Yevropa olimlarini ham izlanishga olib kirgan, o'zidan katta iz qoldirgan bu zot Ulug'bekdir.

Umumiy qilib aytganda, Ikkinchi Renessansning bo'lishi, Temuriylar va munajjimlarning davri barcha ilmiy meroslarni davom ettirish va ularni keng jamoatchilikka yetkazishga hissa qo'shdi. Shu bois, bugun Samarqand ilmiy markazi Yevropadagi ba'zi ilmiy o'choqlarga ta'sir ko'rsatgan.

Uchinchi Renessans va zamonaviy ilmiy jarayonlar

XXI asrga kelib O'zbekiston tarixida Uchinchi Renessans deb ataluvchi yangi ilmiy-ma'rifiy davr shakllana boshladi. Albatta, bu jarayon davlatimiz rahbari muhtaram SH.M.Mirziyoyev tomonidan mamlakatda olib borilayotgan ta'lim islohotlari, ilmiy tadqiqotlar, raqamli iqtisodiyot va innovasiyalarga qaratilgan yangi g'oya sifatida vujudga kelmoqda.

Zamonaviy O'zbekistonning yangi g'oya sifatida vujudga kelgan strategiyasi, avvalo yoshlarga sarmoya kiritishga, ularni ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoni ("Ilm-fan sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi")da ilmiy markazlarni modernizasiya qilish va yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.[6]

Bundan tashqari, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan bot-bot "Uchinchi Renessans" ning poydevori yoshlar ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Chunki har bir davlatning xoh u O'zbekiston bo'lsin xoh u Amerika, uning kelajagi uning yoshlari qo'lidadir. Bizning davlat kelajagi ham bugun iqtidorli, g'ayratli va shijoatli

yoshlarning bunyodkor ishlariga muhtojdir. Zamonamiz tobora ildamlab borar ekan, raqamli iqtisodiyot va zamonaviy, innovasion texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojimiz ham ortadi. Bugun manashu muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan texnologiya – shakllanib borayotgan Uchinchi Renessansning inkor etib bo'lmas sohasi ekan, uni yoshlar hayotiga tatbiq etish, yangi ilm markazlari bilan ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish oldimizga qo'yilgan mashaqqatli vazifalardan biridir. Amalga oshirayotgan islohotlarimiz natijasida yesa biz Farobiy, Beruniy va Ulug'beklar avvalroq asos solib ketgan ilmiy metodlar, tajribalar, matematik aniq o'lchov tamoyillarining texnologik zamonda ham davom ettirayotganimizni ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilganda, O'zbekiston buyuk tarixidagi Renessans davrlarining barchasi yagona g'oyaga ilm, ma'rifat va taraqqiyotga erishish tamoyiliga xizmat qilgan. Bugungi olib borilayotgan islohotlar esa tarixiy an'analarning mantiqiy davomidir. Shunday qilib, mazkur maqolada ko'rib chiqilgan ilmiy asoslar va tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, bugungi islohotlar O'zbekistonni Uchinchi Renessans sari ishonchli tarzda yetaklab bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adam Mes, "Muslim Renaissancye", 1922; N.I. Konrad, "Zapad i Vostok", Moskva, 1966
2. Dimitri Gutas, "Greyek Thought, Arabic Culture", Routledge, 1998
3. Farobiy. "Fozil odamlar shahri" yangi asr avlodi, 2022
4. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2-kitob
5. Sagdullayev A.S., O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlar tarixi, T., 2000,
6. <https://lex.uz/uz/docs/-5073447>